TYS – Yazma darsi : Kompozisyon !

Asosiy ma’lumotlar:

- *200 ta atrofida so'z yozishingiz muhimdir.*
- *Yazma 2 umumiy TYS yazma bo’limini 3/2 qismiga to’g’ri keladi*
- *berilgan vaqt 40 daqiqa*
- *insho asosiy turlari 4 xil*

Qanday qilib to’g’ri va kuchli insho yozish mumkin?

Kuchli insho yozish uchun avval, qanday insho turi bo’yicha savol berilganini tushinish lozim va albatta oldindan reja qilish talab qilinadi. Rejasiz boshlangan insho siz kutgan natija bermaydi.
Shu yerda sizga, insho turini qanday aniqlash kerak va undan tashqari qanday tuzilma bilan insho yozish kerak ekanligini ko’rsatib o’taman.

Insho turlari qanday?

1. Biror fıkrga qo‘shilish yoki qo‘shilmaslik **(Katılmak veya katılmamak)**
2. Fouda va Zararlari **(Avantajlar ve Dezavantajlar)**
3. Muammo yechim **(Sorun ve Çözüm)**
4. 2 xil qarash turini solishtiirish **(Her iki görüşü de tartış, kendi görüşünü açıkla)**

1. Biror fıkrga qo‘shilish yoki qo‘shilmaslik **(Katılmak veya katılmamak)**

Tushuntirish:

Bu insho turi turli fikrlarga nisbatan o‘z munosabatingizni ifoda etish uchun yoziladi. Ushbu insho TYS (Türkçe Yeterlik Sınavı) imtihonida eng ko‘p uchraydigan turlardan biri bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa insho turlaridan ajralib turadi. Bu tur inshoda muhim bo‘lgan jihat – aniq bir pozitsiyani egallash va bu pozitsiyani asoslab berishdir. Bu shuni anglatadiki, fikrlarni qisman qabul qilish yoki rad etish emas, balki savolga qat’iy munosabat bildirish talab qilinadi.

Nega bu insho turi e’tibor talab qiladi?

- Fikr bildirish uchun qat’iy qarorga kelishingiz lozim. Qo‘shilasizmi yoki qo‘shilmaysizmi, aniq pozitsiyangizni belgilab olishingiz muhim.
- Sizning fikringizni qo‘llab-quvvatlaydigan sabablar va dalillarni keltirishingiz zarur. Bu insho faqat shaxsiy fikrlardan iborat emas, balki sizning fikrlaringizni mustahkamlovchi dalillar bilan to‘ldirilishi kerak.

(Katılmak veya Katılmamak) turi ekanligini qanday bilish mumkin?

Savolni o‘qiyotganda quyidagi iboralar ushbu insho turi ekanligini aniqlashga yordam beradi:

1. **"Katılıyor musunuz, katılmıyor musunuz?"**
   Bu savol sizdan aniq javob talab qiladi: qo‘shilasizmi yoki yo‘qmi? Sizning tanlovingiz va tanlovingizni asoslash muhim.
2. **"Ne derece katılıyorsunuz ya da katılmıyorsunuz?"**
   Bu ibora sizdan qisman yoki to‘liq qo‘shilish yoki rad etish darajasini aniqlashingizni so‘raydi. Bu savolga aniq javob berish uchun mavzuga nisbatan pozitsiyangizni belgilashingiz zarur.
3. **"Bu fikri destekliyor musunuz ya da karşı mı çıkıyorsunuz?"**
   Bu savol ham sizning fikringizni ochiq-oydin bayon qilishni talab qiladi. Ushbu ibora fikrni to‘liq qabul qilish yoki rad etish bo‘yicha javob kutadi.

Ushbu insho turini qanday yozish kerak?

1. **Sarlavha**
2. **Kirish qismi:**
- Mavzuni umumiy tarzda tanishtiring.
- Fikrni nega muhimligini tushuntiring.
- O‘z pozitsiyangizni (qo‘shilaman yoki qo‘shilmayman) kirish qismidayoq bayon qiling.
3. **Asosiy qism:**
- O‘z pozitsiyangizni qo‘llab-quvvatlaydigan dalillarni keltiring.
- Har bir sabab uchun alohida paragraf yozing va sabablarni aniq tushuntiring.
- Qarama-qarshi fikrlarga (qo‘shilmagan fikrlarga) javob bering va ularning kamchiliklarini ko‘rsating.
4. **Xulosa qismi:**
- O‘z pozitsiyangizni yana bir bor takrorlang.
- Asosiy sabablarni qisqacha umumlashtiring.
- O‘quvchini o‘z fikringizning to‘g‘riligiga ishontirish uchun kuchli yakunlovchi jumlalar yozing.

Örnek Savollar:

1. **"İnternetin bireylerin sosyal becerilerini geliştirdiği düşüncesine katılıyor musunuz?"**
- Kirishda internetning ijtimoiy hayotdagi o‘rni haqida umumiy so‘zlang.
- Asosiy qismda internetning ijobiy va salbiy ta’sirlarini dalillar bilan keltiring.
- Xulosada o‘z fikringizni mustahkamlang.
2. **"Sosyal medyanın insan ilişkilerine zarar verdiği görüşüne katılıyor musunuz?"**
- Ijtimoiy media haqida umumiy ma’lumot bering.
- Qaroringizni asoslang, masalan: salbiy tomonlar – vaqtni bekor sarflash, noto‘g‘ri axborot; ijobiy tomonlar – aloqalarni osonlashtirish.
3. **"Evde eğitim sisteminin öğrencilerin gelişimi için daha iyi olduğu görüşüne katılıyor musunuz?"**
- Kirishda uyda ta’limning umumiy tasnifini bering.
- Asosiy qismda uyda ta’lim va an’anaviy ta’limni solishtiring.
- O‘z pozitsiyangizni asoslang.
4. **"Kitap okumak mı yoksa film izlemek mi bireyin hayal gücünü daha fazla geliştirir?"**

- Ikki faoliyatni taqqoslang.
- Kitob o‘qish va film ko‘rishning afzalliklari va kamchiliklarini keltiring.
- O‘z nuqtai nazaringizni dalillar bilan mustahkamlang.

5. **"Elektrikli araçların çevreye olumlu etkileri olduğu görüşüne katılıyor musunuz?"**

- Elektr mashinalar haqida umumiy ma’lumot bering.
- Asosiy qismda ekologiyaga ijobiy ta’siri va texnologik cheklovlar haqida yozing.
- Yakunida o‘z pozitsiyangizni mustahkamlang.

2. Foyda va Zararlari (Avantajlar ve Dezavantajlar)

"Foyda va zararlari" inshosi muayyan mavzuning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilishga qaratilgan. Bu turdagi inshoda sizdan muhokama qilinayotgan mavzuning ham foydali, ham zararli jihatlarini chuqur tahlil qilishingiz va aniq sabablar keltirishingiz talab qilinadi. Shuningdek, yakunda o‘zingizning umumiy xulosangizni yoki mavzuga nisbatan pozitsiyangizni bildirishingiz kerak.

Bu tur inshoni qanday aniqlash mumkin?

"Foyda va zararlari" turi ekanligini savoldagi quyidagi iboralardan aniqlash mumkin:

- "Avantajları ve dezavantajları nelerdir?"
- "Bu durumun olumlu ve olumsuz yönleri neler olabilir?"
- "Ne gibi faydaları ve zararları vardır?"
- "Bu konunun bireylere ya da topluma etkileri nelerdir?"

Ushbu inshoni qanday yozish kerak?

1. **Sarlavha**
2. **Kirish qismi:**

- Mavzuni umumiy tarzda tanishtiring.
- Mavzuning nega muhimligini tushuntiring.
- Kirishda foyda va zararlar haqida qisqacha ma’lumot bering, masalan: "Bu masalaning ijobiy va salbiy jihatlari jamiyatda keng muhokama qilinmoqda."

3. **Asosiy qism:**

- **Foydalar:** Avval mavzuning ijobiy tomonlarini muhokama qiling. Har bir fikrni alohida paragrafga joylashtiring va dalillar bilan mustahkamlang.
- **Zararlar:** Salbiy tomonlarini tushuntiring. Salbiy ta’sirlarni asoslash uchun misollar keltiring va sabablarni izohlab bering.
- Foyda va zararlarni tahlil qilishda muvozanatni saqlang. Har ikkala tomonni bir xil darajada ko‘rib chiqishga harakat qiling.

4. **Xulosa qismi:**

- Foyda va zararlarni qisqacha umumlashtiring.
- O‘z pozitsiyangizni bildiring (agar so‘ralgan bo‘lsa).
- Yakuniy xulosani aniq bayon qiling.

Örnek Savollar va Foyda-Zarar Mavzulari:

1. **Savol:**
   "Evde eğitim sisteminin avantajları ve dezavantajları nelerdir?"
- **Foydalar:** Bola uchun shaxsiy ta'lim rejasi, xavfsiz muhit, ortiqcha bosimdan xoli bo'lish.
- **Zararlar:** Ijtimoiy o'zaro munosabatlarning yo'qligi, ota-onalarning pedagogik mahoratining cheklanganligi.
2. **Savol:**
   "Elektrikli arabaların avantajları ve dezavantajları nelerdir?"
- **Foydalar:** Ekologiyaga zarar etkazmaslik, yoqilg'i xarajatlarining kamayishi.
- **Zararlar:** Yuqori narxlar, batareyalarning qayta ishlash muammolari.
3. **Savol:**
   "Teknolojinin çocukların gelişimi üzerindeki olumlu ve olumsuz etkileri nelerdir?"
- **Foydalar:** Ta'lim va bilimga oson kirish, yangi qobiliyatlarni rivojlantirish.
- **Zararlar:** Ekran vaqtining ortib ketishi, ijtimoiy ko'nikmalarning yo'qligi.
4. **Savol:**
   "Hayvanat bahçelerinin avantajları ve dezavantajları nelerdir?"
- **Foydalar:** Hayvonlarning himoya qilinishi, ta'limiy manba sifatida xizmat qilishi.
- **Zararlar:** Hayvonlar uchun sun'iy muhit, ba'zan noinsoniy sharoitlar.
5. **Savol:**
   "Turizmin ülke ekonomisine ve doğasına etkileri nelerdir?"
- **Foydalar:** Iqtisodiyotning rivojlanishi, xalqaro madaniy almashinuv.
- **Zararlar:** Atrof-muhitga zarar yetkazilishi, mahalliy madaniyatning yo'qolishi.

Foyda va zararlari uchun örnek giriş:

"Elektrikli Arabaların Avantajları ve Dezavantajları"
Son yıllarda, elektrikli arabalar çevre dostu bir alternatif olarak popülerlik kazanmıştır. Bu araçlar, çevresel zararları azaltmasıyla öne çıksa da, bazı dezavantajlara da sahiptir. Elektrikli arabaların avantajları ve dezavantajlarını incelemek, bu teknolojiye dair daha bilinçli bir görüş oluşturmayı sağlar.

---

3. Muammo va Yechim (Sorun ve Çözüm)

"Muammo va yechim" inshosi muayyan muammolarni tahlil qilish va ularga yechim taklif qilishga qaratilgan. Bu tur inshoda muammo aniq belgilanishi, uning sabab va oqibatlari ko‘rsatilishi hamda yechim uchun amaliy takliflar berilishi kerak. Muhim jihati shundaki, taklif etilayotgan yechimlar mantiqiy va real bo‘lishi lozim.

Bu tur inshoni qanday aniqlash mumkin?

"Muammo va yechim" turi ekanligini quyidagi savollardan bilib olish mumkin:

- "Bu sorunun nedenleri nelerdir?"
- "Bu sorunun çözümü için ne yapılabilir?"
- "Bu konuda siz hangi çözümleri öneriyorsunuz?"
- "Sorunun kaynağı ve etkileri nelerdir?"

Ushbu inshoni qanday yozish kerak?

1. **Sarlavha**
2. **Kirish qismi:**

- Mavzuni umumiy tarzda tanishtiring.
- Muammo dolzarbligini va uning jamiyat yoki shaxs hayotiga ta’sirini tushuntiring.
- Misol uchun: "Atrof-muhit ifloslanishi bugungi kunda global muammo bo‘lib, butun dunyoda millionlab insonlar hayotiga ta’sir ko‘rsatmoqda."

3. **Asosiy qism:**

- **Muammo tahlili:** Muammoning sabablarini batafsil tushuntiring. Uning jamiyat yoki muayyan sohalarga ta’sirini ko‘rsating.
- **Yechim takliflari:** Muammo uchun mantiqiy va amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan yechimlar taklif qiling. Har bir yechimni alohida paragrafga joylashtirib, uning samaradorligini tushuntiring.

4. **Xulosa qismi:**

- Muammoni qisqacha umumlashtiring va asosiy yechimlarni takrorlang.
- Yakuniy fikrlaringizni bildiring, masalan: "Atrof-muhitni himoya qilish har bir insonning mas’uliyati bo‘lib, bu masalaga e’tibor qaratish kelajak avlodlar uchun ham juda muhimdir."

Örnek Savollar va Muammo-Yechim Mavzulari:

1. **Savol:**
   "Plastik atıkların çevreye zararları ve çözüm yolları nelerdir?"
- **Muammo:** Plastmassaning tabiiy muhitga bo‘lgan uzoq muddatli zararli ta’siri.
- **Yechim:** Plastmassadan foydalanishni kamaytirish, qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirish.
2. **Savol:**
   "Gençlerin teknoloji bağımlılığı sorununu nasıl çözebiliriz?"
- **Muammo:** Yoshlar orasida texnologiyadan ortiqcha foydalanish natijasida salomatlik va ijtimoiy munosabatlarning zarar ko‘rishi.
- **Yechim:** Texnologiya uchun cheklangan vaqt rejimi joriy qilish, alternativ faoliyatlarni rivojlantirish.
3. **Savol:**
   "Şehirlerde trafik sorunlarının nedenleri ve çözümleri nelerdir?"
- **Muammo:** Shaharlardagi tirbandlik, atrof-muhitga zarar va vaqt yo‘qotilishi.
- **Yechim:** Jamoat transportini rivojlantirish, avtotransportga bo‘lgan talabni kamaytirish.
4. **Savol:**
   "Eğitim sisteminde yaşanan eşitsizlikler ve çözüm yolları nelerdir?"
- **Muammo:** Ta’limdagi moliyaviy va hududiy tengsizliklar.
- **Yechim:** Moliyaviy yordam dasturlarini joriy etish, chekka hududlarda maktablarni rivojlantirish.
5. **Savol:**
   "Sağlık alanında yaşanan doktor eksikliğini nasıl çözebiliriz?"
- **Muammo:** Ayrim hududlarda malakali shifokorlar yetishmasligi.
- **Yechim:** Tibbiyot sohasidagi ta’limni rivojlantirish, yosh shifokorlar uchun imtiyozlar yaratish.

4. 2 xil qarash turini solishtirish (Her iki görüşü de tartış, kendi görüşünü açıkla)

Bu tur insholar, bir mavzuga oid ikki xil qarash yoki nuqtai nazarni muhokama qilish va oxirida yozuvchining o‘z fikrini aniq va dalillar bilan bayon etishni talab qiladi. Ushbu inshoda balansni saqlash, har ikkala fikrni teng ko‘lamda ko‘rib chiqish va ularni o‘z nuqtai nazaringiz bilan yakunlash muhimdir.

Bu tur inshoni qanday aniqlash mumkin?

"Her iki görüşü de tartış, kendi görüşünü açıkla" turi ekanligini quyidagi savollardan bilib olish mumkin:

- "Bu konuda farklı görüşler nelerdir?"
- "İki farklı yaklaşımı karşılaştır ve kendi fikrini açıkla."
- "Her iki tarafın artı ve eksilerini değerlendirerek kendi düşünceni belirt."

Ushbu inshoni qanday yozish kerak?

1. **Sarlavha**
2. **Kirish qismi:**

- Mavzuni umumiy tarzda tanishtiring va unga oid ikki asosiy nuqtai nazarni kirish so‘zlarida qisqacha aytib o‘ting.
- Misol uchun: "Teknoloji kullanımı bazılarına göre hayatı kolaylaştırırken, diğerlerine göre sosyal bağları zayıflatmaktadır."

3. **Asosiy qism:**

- **1-nuqtai nazar:** Birinchi fikrni tahlil qiling. Ushbu nuqtai nazarning afzalliklari va mantiqiy dalillarini keltiring.
- **2-nuqtai nazar:** Ikkinchi fikrni tahlil qiling. Uning ham ijobiy va salbiy tomonlarini bayon eting.
- Har bir nuqtai nazar uchun alohida paragraf yozing va ularda teng muvozanat saqlang.

4. **Xulosa qismi:**

- Har ikkala fikrni qisqacha umumlashtiring.
- O‘z nuqtai nazaringizni aniq dalillar bilan bayon eting. Masalan: "Her iki görüşte de haklı noktalar bulunmaktadır, ancak kişisel olarak teknolojinin hayatı kolaylaştırdığına inanıyorum."

Örnek Savollar va Mavzular:

1. **Savol:**
   "Teknoloji kullanımı bireylerin hayatını kolaylaştırıyor mu yoksa sosyal ilişkileri zayıflatıyor mu?"
- **1-nuqtai nazar:** Texnologiya hayotni osonlashtiradi.
- **2-nuqtai nazar:** Texnologiya ijtimoiy munosabatlarni susaytiradi.
2. **Savol:**
   "Uzaktan eğitim mi yoksa yüz yüze eğitim mi daha etkilidir?"
- **1-nuqtai nazar:** Masofaviy ta'lim ko'proq imkoniyat yaratadi.
- **2-nuqtai nazar:** Yuzma-yuz ta'lim samaraliroq.
3. **Savol:**
   "Büyük şehirde mi yoksa kırsalda mı yaşamak daha avantajlıdır?"
- **1-nuqtai nazar:** Katta shaharda yashash imkoniyatlari ko'proq.
- **2-nuqtai nazar:** Qishloq hayoti tinch va sog'lom.
4. **Savol:**
   "Özel okullar mı yoksa devlet okulları mı daha iyidir?"
- **1-nuqtai nazar:** Xususiy maktablarda ta'lim sifati yuqori.
- **2-nuqtai nazar:** Davlat maktablari hamma uchun ochiq va teng imkoniyat yaratadi.
5. **Savol:**
   "Hayvanat bahçeleri gerekli mi yoksa zararlı mı?"
- **1-nuqtai nazar:** Hayvonot bog'lari hayvonlar uchun xavfsiz boshpana.
- **2-nuqtai nazar:** Hayvonot bog'lari hayvonlar erkinligini cheklaydi.